

ISSN (E): 2181-4570

**TEZKOR KONTRATSEPTSIYANI QO'LLASH ORQALI  
REJALASHTIRILMAGAN HOMILADORLIKNI OLDINI OLISH**  
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**  
**Rasulova Shaxnoza Faxriddinovna**

**ANNOTATSIYA**

Tezkor kontratseptsiya maqsadida ichiladigan medikamentoz preparatlar hammasi gormonal hisoblanib, tarkibida levonorgestrel va atsetat ulipristal moddalarini tutadi. Bular yagona preparatlar bo'lmasada eng ommalashgani va effektivi hisoblanadi. Agar tezkor kontratseptsiya preparatlarini jinsiy aloqadan keyin dastlabki 72 soat davomida ichilsa, homilador bo'lish ehtimoli 1-2 foizni tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** kontratseptsiya, homiladorlik, rejalashtirilmagan homiladorlik, gormonal tabletkalar, himoyalananmagan jinsiy aloqa.

**Mavzuning dolzarbligi:** Aksariyat kontratseptiv usullar jinsiy aloqadan oldin qo'llaniladi. Ammo ayrim holatlarda homiladorlikdan saqlanmagan holda jinsiy aloqa ro'y berishi mumkin. Bunga sifatsiz prezervativdan tortib, gormonal kontratseptsiya vositasini ichishni esdan chiqargan holatlar kiradi. Va nihoyat ko'ngilsiz hisoblanadigan zo'r lash holatlarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Shu kabi barcha holatlarda rejalashtirilmagan homiladorlik rivojlanmasligi uchun tezkor kontratseptsiya yordamga keladi.

Tezkor kontratseptsiya quyidagi bir necha xil prinsipda ishlaydi:

1. Ovulyatsiyani tormozlaydi. Ovulyatsiya bo'lmasa yetilgan tuxum hujayra yorilmay puchayib qoladi.
2. Tuxum hujayra otalanishini tormozlaydi.
3. Homila tuxumini bachardon devoriga birikishi (implantatsiya) ni tormozlaydi.

Bu holatlarning barchasida homilador bo'lish kuzatilmaydi. Homiladorlar uchun tezkor kontratseptsiya taklif qilgan gormonlar dozasi yetarli bo'lmaydi.

Tezkor kontratseptsiya maqsadida qo'llaniladigan har qanday preparatni himoyalananmagan jinsiy aloqadan keyin qanchalik erta ichilsa shunchalik effektiv ta'sir etadi. Odatda birinchi 72 soatda ichish tavsiya etilib, 4-5- kunlari ichilganda ta'siri kamayib boraveradi.



**Tabletkalarni qanday qilib to'g'ri ichish mumkin?** Tabletalar yo'riqnomasiga qat'iy amal qilgan holda ichiladi. Negaki ularning turi ko'p va xar birining o'z xususiyati bor. Qo'llashdan oldin vrach bilan maslaxatlashish imkoniyati bo'lsa, yana yaxshi. Vrach Sizga nojo'ya ta'siri eng kam preparatlarni tavsiya etadi. Imkoni bo'lmasa shart emas – tezkor kontratseptsiya tabletkalarini ichish uchun qarshi ko'rsatmalar mavjud emas. Faqat quyidagi standart talablar bajarilsa bo'lgani.

1. Agar ayol kishiga ma'lum sabablarga ko'ra gormonal tabletkalar ichish mumkin bo'lmasa.
2. Agar ayol kishida dori komponentlariga allergiyasi bo'lsa.
3. Agar ayol kishi homilador bo'lsa.

Tezkor kontratseptsiya uchun xech qanday tekshirish usullari va taxlillar o'tkazish shart emas.

Tezkor kontratseptsiya preparatlarining bir qator nojo'ya ta'sirlari bor. Avvalam bor bu ozmuncha qon ketish va Hayz siklini buzilishi hisoblanadi. Keyingi Hayz buzilib – ko'proq yoki nisbatan yengilroq kechishi mumkin. Shuningdek, quyidagi shikoyatlar kuzatilib, ular bir ikki kunda o'tib ketadi. Aks xolda vrachga murojaat qilish zarur.

1. Qorin pastidagi og'riq.
2. Ko'kraklarni taranglashuvi.
3. Bosh og'rishi.
4. Ko'ngil aynishi.
5. Toliqish.

**Tezkor kontratseptsiya abort hisoblanadimi? Abort** – bu bachadon devoriga implantatsiya bo’lgan (yopishgan) homila pufagini olib tashlash hisoblanadi. Tezkor kontratseptsiya preparatlari ishlagunicha implantatsiya jarayoni bo’lib ulgurmaydi. Shunday ekan, fan tilida tezkor kontratseptsiya abort hisoblanmaydi. Bu masalada diniy tashkilotlarining o’z qarashlari mavjud. Ayrim dinlarda xar qanday kontratseptsiya usullari – abort sanalanadi.

Tezkor kontratseptsiya jinsiy yo’l orqali uzatilishi mumkin bo’lgan kasalliklardan himoya qila olmaydi. Guman tug’ilganda albatta vrachga murojaat qilish va kerakli tekshiruvlardan o’tish zarur. Odatda bu tekshirishlar himoyalanmagan jinsiy aloqadan 1-2 xaftha keyin o’tkaziladi. VICH infektsiyasiga tekshirishni esa ikki oydan so’ng yana qaytarish kerak bo’ladi.

Tezkor kontratseptsiyani homiladorlikdan doimiy ravishda saqlash maqsadida ko’llash noto’g’ri hisoblanadi. Ayollar xattoki muntazam jinsiy xayot kechirmagan taqdirda ham, o’z extiyojlarini qondira oladigan va nojo’ya ta’sirlar xavfini oshirmaydigan kontratseptsiya usulini tanlashi lozim bo’ladi. Negaki tezkor kontratseptsiya usuli aynan Hayz siklini buzilishi kabi nojo’ya ta’sir ko’rsatishi mumkin. Bu degani tezkor kontratseptsiyani xayotida bir marta ichish kerak degani emas.

**Tezkor kontratseptsiya – bu faqat tabletkalar emas.** Rejalashtirilmagan homiladorlikdan qutulish uchun nafaqat gormonal tabletkalar ichiladi, balki bachadon ichi kontratseptivlaridan ham foydalanish mumkin. Oddiy bachadon ichi spiralini himoyalanmagan jinsiy aloqadan keyin 7 kun ichida qo’ysa homiladorlikdan 99% holatda saqlaydi. Bundan tashqari bu usul avtomatik ravishda uzoq muddatli kontratseptsiya turiga ulanib ketadi. Bachadon ichi spirali faqat vrachlar tomonidan o’zining ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda o’rnataladi. Eslatib o’tamiz bachadon ichi spirali ham jinsiy yo’l orqali yuqishi mumkin bo’lgan kasalliklardan himoyalay olmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Невынашивание беременности, инфекция, врожденный иммунитет; Макаров О.В., Бахарева И.В.(Ганковская Л.В., Ганковская О.А., Ковалчук Л.В.)- «ГЭОТАР - Медиа».- Москва-2007.

2. Сахарный диабет у беременных. Макаров О.В, Ордынский Москва 2010г

ISSN (E): 2181-4570

3. Акушерский риск. Максимум информации - минимум опасности для матери и младенца Радзинский В.Е., Князев С.А., Костин И.Н. 2009 г. Издательство: Эксмо.

4. Акушерство и гинекология: диагностика и лечение. Учебное пособие. В 2-х томах. ДеЧерни А.Х., Наташ Л. 2009 г. Издательство: МЕДпресс-информ

5. Акушерство. Клинические лекции: учебное пособие с компактдиском / Под ред. проф. О.В.Макарова.- М.: ГЭОТАР-Медиа, 2007.

6. Акушерство. Национальное руководство. Гриф УМО по медицинскому образованию. Айламазян Э.К., Радзинский В.Е., Кулаков В.И., Савельева Г.М. 2009 г. Издательство: Гэотар-Медиа.